OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI


ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI

YANGI O’ZBEK ADABIYOTINING SHAKLLANISHI VA TAKOMILIDA ABDULHAMID CHO‘LPON IJODINING O’RNI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYA

2022-yil 15-mart



Uzoq yo‘lning yo‘lchisiman, boraman,
Istagimni bu yo‘llardan olaman!..

MATERIALLARI

ANDIJON – 2022

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI

“YANGI O’ZBEK ADABIYOTINING SHAKLLANISHI VA TAKOMILIDA ABDULHAMID CHO‘LPON IJODINING O’RNI”

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYA

(2022-yil 15-mart)

MATERIALLARI

ANDIJON – 2022

УЎК: 821.512.133-4.

КБК: 83. (Ў)

Tahrir hay’ati:

A.S.Yuldashev, R.Shamsutdinov, B.Rahmonov, Z.Mamajonov,

D.Abdullayeva, S.Islomova, I.Madg‘oziyev

Mas’ul muharrir:

Dilmurod QURONOV

Filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Nurboy JABBOROV, f.f.d. prof.

Bahodir KARIMOV, f.f.d. prof.

Ushbu konferensiya bajarilishi 2021–2022 yillarga mo‘ljallangan A-OT-2021-57 raqamli “Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi manbalarining elektron platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida o‘tkazilgan.

Muqaddas OQMAMATOV
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

CHO‘LPON ASARLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIZMLARNING KOMPONENTLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi milliy- madaniy frazeologik birliklarning ingliz tiliga tarjimasi borasida fikr yuritildi va misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: komponent, lisoniy, leksema, aruz, barmoq, frazeologik birliklar, sinonim, antonym.

Har qanday millatning lisoniy imkoniyatlarini ko‘rsatadigan jihati bu o‘sha tilning adabiyoti ekanligini ta’kidlaganda Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon naqadar haq edi. Bu iste’dodli shoirning adabiyotimizda, milliy madaniyatimizda tutgan o‘rni beqiyos. Eng katta boylik - bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir,”[98]-deydilar muhataram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev .

Cho‘lponning mahorati shundaki, u aruz va barmoq vaznlarida birdek qalam tebratish barobarida nasr bilan nazmda ham birdek ijod qildi. Bu ikki turda ham shoirning mahorati birdek takomillashib bordi. Cho‘lponday iqtidorli ijodkor asarlarini dunyo tillariga, shuningdek, ingliz tiliga ham tarjima qilish o‘zbek milliy madaniyatini, adabiyotini dunyoga tanitishdir. Holbuki, Cho‘lponning o‘zi ham badiiy tarjima bilan yaxshigina shug‘ullangan edi. Ayniqsa, Cho‘lpon asarlarida qo‘llangan milliy-madaniy frazeologik birliklarning ingliz tiliga tarjima qilishga bel bog‘lagan har qanday mutarjim, eng avvalo, har ikki tilning, ya’ni o‘zbek va ingliz tillarining leksik imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishi talab qilinadi. Bunday til birliklarining nafaqat aynan tarjimalarini, balki sinonimik xususiyatlarini ham, komponentlik xususiyatlarini ham to‘la anglay olmog‘i lozim. Quyida Cho‘lponning milliy-madaniy frazeologik birliklarni qo‘llashdagi, shuningdek,

[98] Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Toshkent: 2020. 4-bet.

mazkur til birliklarining ingliz tiliga tarjimasi borasidagi qarashlarimizni baholi qudrat tahlil qilamiz.

Ma’lumki, komponentli tahlil- bir sathga mansub til birliklarini o‘zaro farqlaydigan komponentlarni-farqlovchi belgilarni topish, shunday komponentlarga ajratish.[99] Cho‘lpon ijodida frazeologik birliklarning qo‘llanishi shoirning mahorati, ona tilimizning lisoniy imkoniyatlarini ochib berishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Ko‘ngil” leksemasi bilan bog‘liq bir necha milliy-madaniy frazeologik birliklar tahlili jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, ijodkor turli mavzulardagi, turli janrlardagi kontekstlarda “ko‘ngil” leksemasi ishtirokidagi frazeologik birliklardan unumli foydalanadi. Masalan: “Odatda onaning ko‘ngli yumshoq bo‘ladi.”[100] “Ko‘ngli yumshoq” frazeologik birligi “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” quyidagicha izohlanadi: “Ko‘ngli yumshamoq”. Achinib rahmi kelmoq; achchig‘idan, qahridan tushmoq. Ko‘ngli yumshoq yoki yumshoq ko‘ngil.”[101] yoki “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (Sh.Rahmatullayev)da: “ko‘ngli yumshoq” kimning yumshoq ko‘ngli, kim ko‘ngilchan, rahmdil. Sinonimi: ko‘ngli bo‘sh, antonimi: ko‘ngli qattiq – qattiq ko‘ngil, tosh yurak- yuragi tosh.[102]

Demak, “ko‘ngil” komponentli frazeologik birliklarning asar personajlarining ichki kechinmalarini ochib berishdagi ahamiyatini Cho‘lpon yaxshi anglagan va ulardan o‘rinli foydalana olgan. Bu frazeologik birlikning ma’nosini ochib berishda ingliz tilidagi quyidagi frazeologik birliklarni tavsiya etamiz:

1. Soft-hearted
2. Kind-hearted
3. Big-hearted[103]

“Zebi bu so‘zni chin ko‘ngildan chiqarib va jerkib turib aytgan bo‘lsa ham, qizlar hammasi birdan kulishib yubordilar.”

Yoki

[99] A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohi lug‘ati. Toshkent:2002, Bet:51.
[100] Cho‘lpon. “Kecha va Kunduz”. Toshkent:1991; Bet:23.
[101] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. Toshkent:2006; Bet:459.
[102] Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent:1991; Bet;163.
[103] https://www.thesaurus.com

“Chunki ular ham yoshlar, boshqa o‘z tenglari kabi ularning ham orzu-havaslari bor, ko‘ngillari ko‘p narsani tusaydi…”[104]

Yuqoridagi birinchi konteksda “ko‘ngildan chiqarib” frazeologik birligi “yurakdan”, “astoydil” ma’nolarini ifodalasa, “ko‘ngli ko‘p narsani tusaydi” frazeologik birligi esa “xohlamoq”, “istamoq” leksemalarining ma’nolariga teng keladi. Har ikkala frazeologik birliklarda ham xarakter yaratishda qahramon dunyoqarashidan kelib chiqib Cho‘lpon milliylikning eng nozik jihatlarini ifodalaydi. Mazkur frazeologik til birliklarining tarjimalarida esa quyidagi ingliz tili frazeologik birliklarini tavsiya etish mumkin:

Masalan: “willingly” so‘zi ingliz tilida “bajonidil” ya’ni “yurakdan” degan ma’nolarni anglatadi va bu so‘zning ma’nosiga teng keluvchi “of one’s own accord” birikmasini “ko‘ngildan chiqarib” birikmasining ingliz tilidagi ekvivalenti deya ayta olamiz. Ko‘ngli ko‘p narsani tusaydi” frazeologik birligi “xohlamoq” ma’nosini bildirib, ingliz tilidagi “want” so‘ziga teng keladi. Bu so‘z ingliz tilida “feel like” birikmasiga ekvivalent hisobladi.

Quyida ana shunday leksik jihatdan ham bir-biriga yaqin frazeologik birliklarni ko‘rib chiqamiz: “Oh, shu topda Saltanatxon bo‘lsaydi. Shu sirlarni ochib berib buning ko‘nglini tinchlatarmidikin?”[105]

Yoki:

“Faqat birgina kishining uyda o‘zi uchun qo‘shib gapirganini o‘yladi, shu narsa uning ko‘ngliga taskin berdi.”[106] “Bu so‘zlardan so‘ng kampirning ko‘ngli biroz o‘rniga tushdi”[107]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: ko‘ngli tinchidi, tinchimoq”. Yoki “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da “ko‘ngli joyiga tushdi. Xotirjam bo‘lmoq, tinchimoq. Varianti: ko‘ngli o‘rniga tushdi; ko‘ngli joyiga tushdi.”[108]

[104] Cho‘lpon. Kecha va Kunduz” Toshkent:1991; Bet:38.
[105] Cho‘lpon. “Kecha va Kunduz”. Toshkent:1991; Bet:86.
[106] Cho‘lpon. “Kecha va Kunduz”. Toshkent:1991; Bet:87.
[107] Cho‘lpon. “Kecha va Kunduz”. Toshkent:1991; Bet:87.
[108] Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent:1991; Bet:15.

Ko‘rinadiki, milliy-madaniy frazeologik birliklarning asar mohiyatini, asar qahramonlari ruhiy holatining, umuminsoniy qadriyatlarni ochib berishda o‘rni nihoyatda katta. Quyida mazkur frazeologik birliklarning ingliz tilidagi variantlarini, ularning ma’nolarini ochib berishdagi eng muqobil frazeologik birliklarni tavsiya etamiz: “to calm the mind” frazeologik birligi “ko‘ngli tinchlandi, ko‘ngliga taskin berdi, ko‘ngli biroz o‘rniga tushdi” birikmalariga ekvivalent hisoblanib, ingliz tilida “to comfort” ya’ni “tasalli berish uchun” ishlatiladi.

Tarjimon yuqoridagi ekvivalentdan yoki uning sinonimlaridan, o‘zi uchun eng ma’qul deb bilganini tanlaydi va tarjima jarayonida kontekstning ma’nosidan kelib chiqib foydalanadi. “Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim – tajribalarni to‘plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalari, quvonch va qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydiki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi… Estetik vazifa tilning asosiy komminikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi,”[109]- deydi taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov. Haqiqatdan ham milliy-madaniy frazeologik birliklar qaysi tilga yoki mavzuga oid bo‘lishiga qaramay, ular o‘sha til egalarining turmush tarzi, urf-odatlari va madaniyatini ham yaqqol ifodalashi bilan xarakterlidir.

[109] Mahmudov M. Nutq madaniyati va tilning estetik vazifasi. Filologiya masalalari. 2006; 2-son (11); Bet:47-51.

Абилжон АБДУРАХМОНОВ. Чўлпон насрида нур ва ранг поэтикаси (“Қор қўйнида лола” ҳикояси мисолида) 206
Ойбек БАРЗИЕВ. Чўлпон шеъриятида табиат тасвири билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар.....211
Р. УМУРЗАКОВ. Чўлпон шеърларида рамзлар.....221
Nafisa KARIMOVA. Cho‘lponning badiiy- ijtimoiy qarashlari xususida.....227
Muslima AHMADJONOVA. Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanida ijtimoiy hayot tasviri.....230
Dildora YORBULOVA. Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi tahlili.....235
Фарход КАРИМОВ. Своеобразие лирики Чулпана.....241
Moxinur QURBONOVA. Abdulhamid Cho‘lpon ijodida okkazionallarning o‘rni.....245
Дилфуза РАСУЛМУХАМЕДОВА. Чўлпон асарларининг бадиий поэтикаси ҳақида.....248
Sardorbek SOBIROV, Sardorbek MUKHTAROV. Cholpon's work, lingvo poetics and its place in history.....254
Ойбек КУЧКАРОВ. Чўлпон шеъриятида мотивлар синтактикаси.....260
Нилуфар ОЙМАТОВА. Навоий ва Чўлпон ижодидаги ҳамоҳанглик.....266
Малика АДЫГЕЗАЛОВА. Портрет Клеопатры из одноимённого рассказа А.Чулпана.....269
Dilobar AZIZOVA. “Kecha va kunduz” romanida manfaatli nikoh motivi.....273
Dilnoza ALIMOVA. Cho‘lpon poetikasida individual metaforalarning qo‘llanilishi.....279
Gulnoza BOQIYEVA. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida san’atkor obrazi.....286
Maftuna JALOLIDINOVA. Cho`lpon ijodi va assotsatsiativlik.....290
Zarnigor QOBULOVA. Cho'lpon she'rlarida metaforalarning qo'llanilishi.....293
Mashhura PO'LATJONOVA. "Mushoara" she'ri va uning tahlili hamda janr bilan bog'liq muammolar.....295
Dilnoza SADULLAYEVA. “Kecha va kunduz” poetikasiga bir nazar.....303
Zarnigor SHERALIYEVA. Cho‘lpon hikoyalarida badiiy kontrast.....308
Utkir HAKIMOV. Cho’lpon hikoyalarida badiiy peyzaj.....314
Iroda BEKMURADOVA. Cho‘lpon she’riyatida takror san’atining o‘rni.....318
Mashhura KAMOLOVA. Cho‘lpon ijodida qo‘llangan ayrim o‘xshatishlar.....324
Xurshida POLVONOVA. Cho‘lpon hikoyalarida ayollar taqdiri…….....…….....…….327
Toshpo’lat TOJIDDINOV. Cho‘lpon she’riyatining grafik shakli bilan bog’liq yangilanishlarga doir..331

CHO‘LPONNING TARJIMONLIK FAOLIYATI VA ASARLARINING O‘ZGA TILLARGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Баҳодир КАРИМОВ. Чўлпон “Суба”нинг таржимони.....337
Махлиё УМАРОВА. Байрон ва Чўлпон ижодида муштараклик ва ўзига хослик.....342
Мунаввара ЁҚУББЕКОВА, Маъмуржон САИДХОНОВ. Ёрқинроқ порласин Чўлпон юлдузи.....347
Muqaddas OQMAMATOVA. Cho‘lpon asarlarining ingliz tiliga tarjimasida milliy-madaniy frazeologizmlarning komponentligi.....354
Malika BEKIYEVA. Cho’lponning tarjimonlik faoliyati va asarlarining o’zga tillarga tarjima qilish muammolari.....358
Shahribonu OQMAMATOVA. Cho‘lpon asarlarida peyzajning ramziy ma’nolarini ingliz tiliga tarjimasi masalalari.....363
Shoxista YOQUBBOYEVA. Cho’lpon tarjimalarining badiiyati.....365

CHO‘LPON IJODINING O‘ZBEKISTONDA VA XORIJDA O‘RGANILISHI

Шаҳло ҲОЖИЕВА. Чўлпон ижодининг жаҳон адабиёти контекстида ўрганилишига доир.....370
Дилафрўз ЖАББОРОВА. Адабий танқидда хориж чўлпоншунослиги.....375
Zuxraxon MADALIYEVA. Edward Allworth asarlarida Cho`lpon ijodining o`rganilishi.....381